

JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI (Dastlabki ma'lumotlar)

Jizzax viloyatining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra **1416,6 ming kishini** tashkil etib, yil boshidan **6,1** ming kishiga yoki **100,4 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **662,4** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **46,8 %**), qishloq aholisi soni **754,2** ming kishi (**53,2 %**) ni tashkil etdi.

2021 yil 1-aprel holatiga doimiy aholisi soni
1416,6 ming kishi.





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi (2021- yil yanvar-mart oylarida, ming kishi)

	2020 -yil	2021-yil*	O'sish sur'ati %
Jizzax viloyati	1388,6	1416,6	102,0
Jizzax sh.	178,3	181,5	101,8
Arnasoy	46,0	46,6	101,3
Baxmal	156,7	159,9	102,0
G'allaorol	172,2	175,7	102,0
Sh. Rashidov	221,8	227,6	102,6
Do'stlik	65,7	66,8	101,7
Zomin	164,2	167,8	102,2
Zarbdor	86,4	88,6	102,5
Mirzacho'l	51,9	52,8	101,7
Zafarobod	49,9	50,7	101,6
Paxtakor	74,6	76,0	101,9
Forish	92,7	94,0	101,4
Yangiobod	28,2	28,6	101,4



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1- aprel holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1- aprel holatiga eng ko'p aholi soni Sh. Rashidov tumanida 227,6 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 16,1 % ni) va Jizzax shahrida 181,5 ming kishini (12,8 %), aksincha eng kam aholi soni Yangiobod tumanida 28,6 ming kishini (2,0 %) va Arnasoy 46,6 ming kishi (3,3 %) tashkil etdi.



TUG'ILISH

2021- yilning yanvar-mart oylarida 8,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,5 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan minus 0,4 promillega kamaygan (2020- yilning yanvar-mart oylarida 23,9 promille bo'lgan).



Tug'ilish koeffitsiyenti 2020- yilning mos davriga nisbatan Jizzax shahar (20,4 promilledan 26,5 promillega) va Zomin tumanida (25,3 promilledan 26,9 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Sh. Rashidov tumanida (26,2 promilledan 23,9 promillega) va Yangiobod tumanida (19,6 promilledan 16,0 promillega) kuzatildi.



Jizzax viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (2021-yil yanvar-mart)

	2020 -yil	2021-yil*	O'sish sur'ati %
Jizzax viloyati	8235	8189	99,4
Jizzax sh.	900	1184	131,6
Arnasoy	228	201	88,2
Baxmal	1118	1008	90,2
G'allaorol	1086	1059	97,5
Sh. Rashidov	1438	1339	93,1
Do'stlik	367	333	90,7
Zomin	1032	1111	107,7
Zarbdor	566	516	91,2
Mirzacho'l	234	212	90,6
Zafarobod	254	270	106,3
Paxtakor	398	427	107,3
Forish	477	416	87,2
Yangiobod	137	113	82,5



TUG‘ILGANLAR SONI

Ma'lumot uchun! tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

Qiz bola:

3,9 ming kishi

O‘g‘il bola:

4,3 ming kishi




2021- yilning yanvar-mart oylarida 8,2 mingta tug‘ilganlar qayd etilgan bo‘lib, shundan o‘g‘il bolalar 52,4 %, qiz bolalar 47,6 % ni tashkil etadi.



VAFOT ETGANLAR

2021- yilning yanvar-mart oylarida 1,4 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega ko'paydi (2020- yilning yanvar-mart oylarida 3,8 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2020- yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Do'stlik (3,1 promilledan 2,8 promillega) tumanida kuzatildi.






Jizzax viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi (2021-yil yanvar-mart)

	2020 -yil	2021-yil*	O'sish sur'ati %
Jizzax viloyati	1293	1437	111,1
Jizzax sh.	158	226	143,0
Arnasoy	37	42	113,5
Baxmal	164	180	109,8
G'allaorol	182	188	103,3
Sh. Rashidov	228	233	102,2
Do'stlik	51	46	90,2
Zomin	159	157	98,7
Zarbdor	72	82	113,9
Mirzacho'l	38	42	110,5
Zafarobod	37	52	140,5
Paxtakor	64	76	118,8
Forish	77	83	107,8
Yangiobod	26	30	115,4

2021- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 51,3 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,3 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan 8,5 % i o'simtalardan, 7,0 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,0 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 2,9 % i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 14,0 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)




2021- yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 6,8 ming kishini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan minus 0,1 ming kishiga kamaygan, (2020- yilning yanvar-mart oylarida 6,9 ming kishi bo'lgan).



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 112 nafarni tashkil etib, ularning 48,2 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 24,1 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 8,9 % i tug'ma anomaliyalardan, 1,8 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,8 % i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 1,8 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 13,4 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.


1 yoshgacha vafot etgan bolalarning asosiy o'lim sabablari bo'yicha taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2021- yilning yanvar-mart oylarida 1 yoshgacha vafot etgan bolalar 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 12,4 promilleni tashkil etdi, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,9 promillega ko'paydi (2020- yilning yanvar-mart oylarida 9,5 promille bo'lgan).



**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti
(2021-yil yanvar-mart, ming birlik)**



Aholi migratsiyasi (ming kishi)



2020- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,0 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 3,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,7 ming kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 0,4 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)



	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	2,6	3,0
Ko'chib ketganlar	3,0	3,7
Migratsiya sa'ldosi	-0,4	-0,7

Migratsiya saldosini Baxmal (-0,2 ming kishi), G'allaorol (-0,2 ming kishi) va Forish (-0,2 ming kishi), Do'stlik (-0,1 ming kishi) tumanlarida ko'chib ketganlar soni ko'chib kelganlar soniga nisbatan sezilarli darajada balandligi kuzatildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Jizzax shahri (0,04 ming kishi), Sh.Rashidov (0,3 ming kishi), Mirzacho'l va Zarbdor tumanlarida (0,01 ming kishi) kuzatildi.

"Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi" (72) 221-51-19, (72) 222-81-39